

SO'Z XUSUSIDAGI ADABIY-ESTETIK QARASHLARNING LIRIK TALQINI

Tog'aymurodov Malik Tog'aymurodovich

Qarshi davlat universiteti talabasi

Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich

Ilmiy rahbar: PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854743>

Ma'lumki so'z insonga Alloh tomonidan berilgan eng ulug' ne'matdir. Chunki, so'z orqali inson o'zligini anglaydi, tafakkur qiladi, boshqalar bilan munosabatga kirishadi va muloqot qiladi. Shubhasiz, inson hayotida uning o'rni beqiyosdir.

So'zning paydo bo'lishi haqida antik davrdan buyon bahs-munozaralar to'xtamaydi. Qadimgi yunon olimlarining bu masalada ikki qarama-qarshi guruhga bo'linganliklari, biri nom bilan u ifodalagan narsa o'rtasida bog'liqlik mavjudligi g'oyasini ilgari sursa, ikkinchi guruh esa, aksincha, hech qanday aloqa yo'qligini, shuning uchun bir narsa turlicha nomlanishini bayon qiladilar.

O'zbek adabiyotshunoslikda ham so'z haqida adabiy-estetik qarashlar mavjud va buyuk mutafakkirlar, adib va shoirlar so'zning naqadar ulkan kuchga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Jumladan, Alisher Navoiyning:

So'zchi holin boqma, boq so'z holini,

Ko'rma kim der oni, ko'rgilkim ne der. –

misralari so'zlovchidan ham ko'ra u so'zlayotgan so'zga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Shuningdek, buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Boburning o'z o'g'li – Humoyunga yozgan xati ham keltiriladi. Bobur mirzo maktubida o'g'liga ayrim masalalarda bir ota sifatida tanbeh ham beradi. Bobur mirzo hamisha badiiy ifodaning aniq va sodda bo'lishi, uslubning ravonligi uchun intiladi, jimjimador tasvirlar, g'aliz jumalar qo'llashdan qochadi. Bu uning qalamiga mansub barcha asarlarda o'z aksini topgan. Humoyunga bitgan maktubi ham bundan xoli emas, unda ulug' shoir bir ota sifatida o'g'liga chiroyli va aniq yozishning muhimligini uqtiradi: "...Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'quyolmas eding. O'quyolmagandin so'ng albatta tag'yir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qusa bo'ladur, vale asru mug'laqtur. Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas".

Bobur mirzo o'g'lining yozuvi yomon bo'lmasa ham, to'g'ri emasligini (xato yozishini) tanqid qiladi: "...iltifotni "to" (ط) bila bitibsen. Qulunjni "yo" (ي) bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib (har yo'l bilan) o'qusa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur (lekin bu mujmal so'zlaringdan maqsading (xatingni o'quvchiga) to'la tushunarli bo'lmaydi). G'olibo, xat bitirda kohillig'ing (yalqovliging) ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'ladur (Xatingni bezakdor qilay deysan-u, shu sababli u mujmal bo'ladi)". Bobur o'g'liga to'g'ri va aniq yozish bo'yicha tanbeh berar ekan, nasihat qilishni ham unutmaydi: "Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham sanga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qug'uchig'a (Bundan keyin ortiqcha hashamsiz, aniq va to'g'ri yozgin; ham o'zingga tashvish ozroq bo'lsin, ham o'quvchiga)" deya o'g'liga nasihat qiladi shoir.

Mustaqillik yillarida yaratilgan O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "So'z latofati" kitobi o'zbek tilidagi sara so'zlarning kelib chiqish tarixi, ishlatilish o'rni, ma'nosi va boshqa ko'plab jihatlarini o'zida mujassam etgan asardir.

Muallif uzum, g'ujum, qultum, yutum, tuzum qurum; tuvak, chapak, qarsak, yurak, ko'kaldosh singari yasama so'zlarda yasash uchun asos bilan yasovchi qism o'rtasida mazmuniy muvofiqlik, sababiylik munosabati mavjudligini to'g'ri ta'kidlaydi. Tub so'zlar nima uchun shunday deyilishi, nima uchun ko'rish organini turkiylar ko'z, arablar ayn, forslar chashm, ruslar glaz nomlari bilan yuritishi, nega toshni bizning ajdod tosh degani, boshqalar xajar, sang, kamen, stoun, shtayn ataganligini bayon qilib, bu sir-sinoat olami ekani, u olisdagi yulduzlardek noayon qolaverishini yana bir bor tasdiqlaydi va keyingi maqolalarda o'quvchini so'zning sirli olamiga sayr qilishga yetaklaydi.

Til – bir ummon. U shevalardan, boshqa tillardan oqib kelgan jilg'alar hisobiga to'lib-toshib turadi. Shuning uchun tilning lug'at tarkibi ochiq sistema, deyiladi. Jamiyat taraqqiyotida yangi-yangi tushunchalarning dunyoga kelishi bilan tilda ularning nomlari ham paydo bo'ladi. Yoki bir narsaning turfa nomlari maydonga kelib, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. E.Vohidov "Uch daryodan suv ichgan dengiz" maqolasida tilimizning ichki va tashqi omillar asosida rivojlanib borishi haqida fikr yuritadi. Adib "o'zbek tilining buyuk dengizi uch buyuk daryo – turkiy, arabiy va forsiydan suv ichish barobarida eski lotin, xitoy, hind, mo'g'ul, rus, Yevropa tillaridan bahramand bo'lgan"ini to'g'ri ta'kidlaydi.

Ana shu daryolardan suv ichgan o'zbek tilining leksik imkoniyatlari g'oyat kengligidan adib faxrlanadi. Xususan, birgina "osmon" tushunchasining o'ndan ortiq nomining kamalak ranglaridek tovlanib turishini ta'kidlaydi. Masalan, osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko'k, arsh, davvor, minu va boshqalar.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ham so'zning naqadar qudratli kuch ekanligini quyidagi misralarda aks ettiradi.

***Temur tig'i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.***

Bilamizki, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur Yer yuzining ko'pgina hududlarini egallab, markazlashgan saltanat barpo etgan. Ammo jahon xaritasida u egallay olmagan hududlar ham anchagina edi. Alisher Navoiy esa o'zining o'lmas asarlari bilan nafaqat o'zbek yoki turkiy adabiyot balki butun jahon adabiyoti rivojiga ham o'zining katta hissasini qo'shdi. U yozgan "Xamsa"-yu "Chor devon"ni butun dunyo xalqlari sevib o'qiydilar, bahramand bo'ladilar va o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, so'z barcha tillarning asosi hisoblanadi. Tilning rivojlanishi esa uning lug'at, ya'ni so'z boyligida namoyon bo'ladi. O'zbek tili shunday ma'noli so'zlarga boy tillardan biridir. Uning lug'at boyligini yanada oshirish uchun ko'pgina chet el so'zlaridan voz kechib, o'zimizning sof o'zbekcha so'zlarimiz muqobillarini topishimiz va ularni amalda qo'llashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. АВАЗНАЗАРОВ, О. (2022). АЛИШЕР НАВОИЙ ДОСТОНЛАРИДАГИ ЙЎЛ, ЙЎЛОВЧИ, САФАР ВА МАНЗИЛ ТАЛҚИНЛАРИДА БАДИИЙ ТУШЛАРНИНГ РОЛИ. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 2(3).
2. Avaznazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF THE IMAGE OF SAKI IN THE NAVOI'S LITERARY AND HISTORICAL MISSION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(3), 1-17.

3. Авазназаров, О. (2023). ALISHER NAVOIY-ULUG 'YO 'LBOSHCHI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/1), 76-82.
4. Авазназаров, О. Р. (2019). Соқий образи генезиси. Урганч: Ilm sarchashmalari, 11, 71-75.
5. АВАЗНАЗАРОВ, О. Р. (2019). IMAGE OF WINE IN LYRICS OF NAVOI. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 150-162.
6. AVAZNAZAROV, O. (2021). Yo'l obrazi tadqiqiga doir ba'zi mulohazalar.
7. AVAZNAZAROV, O. (2021). ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ АДАБИЁТИДА СОҚИЙ ТИМСОЛИНИНГ ЎРНИ.
8. AVAZNAZAROV, O. (2020). "Лайли ва Мажнун" достонида соқий образи.
9. AVAZNAZAROV, O. (2020). "Фавойиду-л-кибар"да соқий образидан фойдаланиш усуллари.
10. AVAZNAZAROV, O. (2020). "Saddi Iskandariy" dostonida soqiy obrazi.
11. Авазназаров, О. (2018). Абдулла Орипов ижодида най тимсоли.
12. Avaznazarov, O., & AVAZNAZAROV, O. (2019). "Lison ut-tayr"da tush motivi.
13. AVAZNAZAROV, O. (2019). THE ROLE OF THE IMAGE OF SAKI IN THE POEM "HAYRAT UL-ABROR".
14. Нуриддинов, Ш. Б., & Авазназаров, О. Р. (2015). Эпизоды сна в поэме Алишера Навои «Семь планет». Молодой ученый, (12), 942-944.
15. Tog'aymurodovich, T. A. M., & Rahmatulloevich, A. O. (2023). RAUF PARFI SHE'RIYATIDA RADD BADIY SAN'ATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 217-221.
16. Tog'aymurodovich, T. A. M., & Rahmatulloevich, A. O. (2023). ALISHER NAVOIY BOLA TARBIYASI XUSUSIDA. Journal of new century innovations, 23(1), 184-187.
17. Inoqova, N., & Avaznazarov, O. (2023). ONA TILI HAQIDAGI SHE'RLARDA TARIXIY XOTIRA TALQINI (ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATI MISOLIDA). Наука и технология в современном мире, 2(9), 58-62.
18. Axadova, H. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA ODOB KONSEPSIYASI. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(6), 15-18.
19. Shermamatova, S., & Shodmonov, G. (2023). AVAZ O'TAR IJODIDA MA'RIFATPARVARLIK. Talqin va tadqiqotlar, 1(21).